



INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUVNING O'RNI

Ibragimova Farangiz Ilhomjon qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Psixologiya yo'nalishi I-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim muhitini shakllantirishda psixologik yondashuvning o'rni yoritilgan. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan hamda turli psixofiziologik xususiyatlarga ega o'quvchilarni umumiy ta'lim jarayoniga jalb etishni nazarda tutadi. Tadqiqotda ko'rish nuqsoni bo'lgan ta'lim oluvchilarning psixofizik xususiyatlari, o'qish jarayonidagi muammolari va psixologik qo'llab-quvvatlovning ahamiyati tahlil qilingan. Inklyuziv muhitda psixologik yondashuv shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy moslashuvni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, psixologik yondashuv, ko'rish nuqsoni, maxsus ehtiyoj, ijtimoiy integratsiya.

РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ФОРМИРОВАНИИ ИНКЛЮЗИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

Аннотация: В данной статье раскрывается роль психологического подхода в формировании инклюзивной образовательной среды. Инклюзивное образование предусматривает вовлечение в общий образовательный процесс обучающихся с ограниченными возможностями и различными психофизиологическими особенностями. В исследовании проанализированы психофизические особенности обучающихся с нарушением зрения, трудности, возникающие в процессе обучения, а также значение



психологической поддержки. В инклюзивной среде психологический подход обеспечивает личностное развитие и социальную адаптацию.

Ключевые слова: инклюзивное образование, психологический подход, нарушение зрения, особые потребности, социальная интеграция.

Kirish Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim tushunchasi insonparvarlik, tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan holda shakllanmoqda. Inklyuziv ta'lim – bu imkoniyati cheklangan bolalar, turli psixofiziologik xususiyatlarga ega o'quvchilar va sog'lom tengdoshlari birgalikda o'qiydigan, har bir shaxsning imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga qaratilgan ta'lim jarayonidir. Bunday muhitni samarali tashkil etishda psixologik yondashuv muhim o'rin tutadi, chunki u nafaqat o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga oladi, balki ularning hissiy holati, motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuv darajasini ham chuqur o'rganadi.

Psixologik yondashuv inklyuziv ta'limda har bir o'quvchi o'zini qadrlangan, tushunilgan va qo'llab-quvvatlangan his etadigan muhitni yaratishni ta'minlaydi. Shu boisdan pedagog va psixologlarning hamkorlikdagi faoliyati, ularning o'quvchilarga nisbatan empatik, tolerant va individual yondashuvi inklyuziv muhitning muvaffaqiyatli shakllanishiga zamin yaratadi. Shaxsga ijtimoiy yo'naltirilgan ta'lim jarayonida ko'rishida nuqsoni bo'lgan bitiruvchi yoshlarning hayotga ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishda tabaqalashtirilgan va individual ta'limni tashkil etish, shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy hayot va mehnat faoliyati integratsiyasi asosida mustaqil hayotga yo'naltirish modelini ishlab chiqish, umumta'lim muassasalarida inklyuziv (uyg'unlashgan) ta'lim sharoitida ko'rishida nuqsoni bo'lgan bitiruvchi yoshlarning hayotga ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishda adaptiv metodikani ishlab chiqish va shu toifa yoshlarni mustaqil hayotga



yo'naltirishning korreksion (tuzatuvchi) – rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratishning me'yoriy asoslari ishlab chiqilgan.

Asosiy qism. Inklyuziv ta'lim – o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir.[1] “Inklyuziv yondashuv – bu o'quvchilarni ta'lim faoliyatiga turli ehtiyojlarni qondirish jarayoniga jalb qilish vositasi. Biroq insonning mohiyati uning faoliyatiga qaraganda ancha boy, ko'p qirrali va murakkabroqdir. Ma'naviy rivojlanishning eng muhim manbalari sifatida mikrojamiyat va ta'lim jarayoni subyektlari o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratish lozim. Shunday qilib, shaxsning har tomonlama rivojlanishi tobora kengroq ijtimoiy-madaniy sharoitlarni rivojlantirishni talab qiladi. Shu munosabat bilan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir o'quvchining ijtimoiy yetukligiga ko'tarilishning bir qismi sifatida shaxsiy, ta'lim vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradigan muammoli motivatsiyali, kompleks yondashuvdan foydalanish istiqbollidir. Zero, inson uning uchun ma'lumot guruhiga kirganda, shaxs muqarrar ravishda (ularning individual psixologik xususiyatlaridan va jamiyatning ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan qat'i nazar) bir-biriga bog'liq bo'lgan uchta, lekin ayni paytda juda qimmatli moslashish, individuallashtirish va integratsiya bosqichlarni bosib o'tadi.

Ko'zi ojiz bolalarning ijtimoiy moslashuvini to'g'ri tashkil etishda, avvalambor, ta'lim-tarbiyaning o'rni muhim hisoblanadi. XIX asrning boshlariga qadar ko'zi ojiz bolalarnig ta'lim olishi nihoyatda mushkul bo'lib, ta'lim olish vositalari hamda shart-sharoitlari yaratilmagan edi. Bu borada Fransiya va Rossiyada birinchi ko'zi ojizlar o'quv yurtlarining asoschisi mashhur pedagog V.Gayui tiflopedagogikaning asoschisi hisoblanadi. V.Gayui tufayli ko'zi ojizlarni nafaqat tizimli tarbiyalash boshlandi, ularga jamiyatning to'la huquqli a'zosi sifatida ta'lim va ijtimoiy mehnat rehabilitatsiyasiga muhtoj bo'lgan insoniy munosabat shakllandi.



Ko‘zi ojizlarning aqliy faoliyatini izohlash uchun birinchi urinishlar fransuz ensiklopedisti D.Didroga tegishli. Ko‘zi ojizlarni tizimli ravishda tarbiyalashning boshlanishi tiflopedagogikaning paydo bo‘lishi uchun turtki bo‘lib xizmat qildi va shu bilan birga tiflopsixologiyaning shakllanishining obyektiv sharti bo‘ldi. Taniqli psixolog olim L.S.Vigotskiy ta’limning asosiy vazifasi g‘ayritabiiy bolani hayotga olib kirish, uning ijtimoiy dislokatsiyasini tuzatish, ya’ni insonning ijtimoiy qiyofasini belgilaydigan xatti-harakatlardagi og‘ishlarni bartaraf etish. Shu munosabat bilan u shunday deb yozgan edi: “Ehtimol, ertami-kechmi insoniyat ko‘rlikni ham, karlikni ham, aqldan ozishni ham yengadi. Lekin ularni tibbiy va biologik jihatdan emas, balki ijtimoiy va pedagogik jihatdan ancha tez mag‘lub etadi”. L.S.Vigotskiy g‘ayritabiiy bola tanasining kompensatsion qobiliyati g‘oyasini faol rivojlantirdi. U g‘ayritabiiy bolalar bilan tuzatish – olim pedagogik ishning boshlang‘ich nuqtasini bola tanasining saqlanib qolgan, anomaliyadan eng kam ta’sirlangan yoki unga ta’sir qilmagan holati deb hisobladi”^[2]

Ta’lim sohasida inklyuziv yondashuvning evolyusiyasi jamiyatning nogironlik to‘g‘risidagi tushunchasi o‘zgarishiga asoslangan edi: XX asrning 1960-yillari o‘rtasigacha mavjud bo‘lgan salomatlik imkoniyati cheklangan odamlarni ajratib qo‘yishni nazarda tutuvchi tibbiy model o‘rniga XX asrning 1980-yillari o‘rtasigacha davom etgan 23 normallashtirish modeli keldi. Bu model salomatlik imkoniyati cheklangan odamlarni jamiyatga integratsiyalashni nazarda tutar edi.

Hozirgi vaqtda salomatlik imkoniyati cheklangan bola ta’limidagi to‘siqlar va muammolar jamiyat ta’lim tizimining atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlari nomukammalligini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy modelga o‘tish tendensiyasi kuzatilmoqda.

N.V.Borisova, S.A.Prushinskiy ta’kidlaydilarki, inklyuziv ta’lim tayanadigan ijtimoiy modelga ko‘ra, “nogironlikning sababi faqat kasallikning o‘zida emas, balki jamiyatdagi mavjud jismoniy (ijtimoiy tuzilmalar va tartiblarga



doir) va tashkiliy (munosabatlarga doir) to‘siqlar, stereotiplar va noto‘g‘ri qarashlardir.”

S.V.Alexinaning fikricha, “inklyuziya - ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlashtirish va imkoniyati cheklangan shaxslarning birgalikda sifatli ta’lim olishga huquqlarini tan olish maqsadlarini tushunishning bir xil ma’noda bo‘lishini nazarda tutuvchi ijtimoiy konsepsiya” hisoblanadi. Inklyuziv ta’limni eng umumiy tarzda ta’lim siyosati va amaliyotining umumiy ta’lim asoslariga eng ko‘p darajada tegishli bo‘lgan yangi istiqbolli strategik yo‘nalishi sifatida belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi: Inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirish jarayonida psixologik yondashuvlarning o‘rni va ahamiyatini aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari:

- inklyuziv ta’lim tushunchasining mazmun-mohiyati va uning psixologik-pedagogik asoslarini ilmiy adabiyotlar tahlili asosida yoritib berish;
- ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari va ta’lim jarayonida duch keladigan muammolarini aniqlash;
- inklyuziv ta’lim muhitida psixologik yondashuvning o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuviga ta’sirini asoslab berish;
- inklyuziv ta’lim sharoitida korreksion–rivojlantiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi psixologik yondashuvlarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy psixologik adabiyotda imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda ijtimoiy va psixologik moslashuv jarayonlari diagnostikasi va psixokorreksiya muammosi turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Jumladan, Trofimova N.M., Duvanova S.P., Trofimova N.B., Pushkina T.F., L.V.Zankov, L.S. Vo‘gotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni,



N.M.Logovskiy, Sh.M.Solovev rivojlanishida nuqsoni mavjud xususan eshitishda nuqson bor bolalar idrokini xotirasi va nutqi rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etganlar. L.S.Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni o'rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. U "Psixologiyaning asosiy muammolari" kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'limni olib borish kerakligini, korrektsiya, kompensatsiya usullari va bularni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib berdi. L.S.Vigotskiy anomal bolada nafaqat "salbiy" balki "ijobiy" tomonlarini ham o'rganib, aniqlab, shularga tayangan holda va potentsial qobiliyatni inobatga olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi. U psixologiya sohasida katta nazariy meros qoldirdi va haqli ravishda psixologiya fanining asoschisi sanaladi.

Atoqli psixolog L. V. Zankov 1935 yildan L. S. Vigotskiy bilan hamkorlikda ishlay boshladi. Bu olimlarning sovet psixologiyasi va psixologiyasining nazariy jihatdan shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldilar. Ular aqliy jihatdan qoloq bolalar psixikasi taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganib, "rivojlanishning tuxtash nazariyasi", "chegara" degeneratsiya nazariyasi", "ma'naviy defektli" kabi g'ayri ilmiy va reaktсион nazariyalarni fosh etdilar.

Eksperimental psixologiya laboratoriyasida anomal bolalarning rivojlanishi maxsus ta'lim ta'siri ostida qanday o'zgarib borishini o'rganish, ulardagi mavjud nuqsonlarni ham, ijobiy ham salbiy tomonlarni aniqlash yuzasidan qiyosiy eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi.

Sog'lom va anomal bolalarda bilish faoliyatining rivojlanishini I.M.Solovev ham har tomonlama o'rgandi. "Normal va anomal bolalarda bilish faoliyatining psixologiyasi" nomli kitob shu ishning natijasi bo'ldi. I.M.Solovev bir guruh xodimlari bilan qiyoslashning murakkab shakllarini eksperimental tadqiqotlar yordamida o'rganishda chinakam novatorlik ko'rsatdi.



Экспериментальный психология институту 1943 йилда Россия Психология fanlari akademiyasining Психология ilmiy-tekshirish institutiga aylantirildi. Hozirgi zamon pсихология fanining rivojlanishida mazkur institut xodimlarining roli nihoyatda katta bo'ldi.

1920 yilda anomal bolalarni tarbiyalash instituti ochilib, 1925 yilda bu institut 2-Moskva davlat universiteti pсихология qulliyotining pсихология bo'limiga aylantirildi, 1930 yili V. I. Lenin nomidagi Moskva davlat pсихология instituti qoshida mustaqil pсихология soxasi tashkil etildi. Imkoniyati cheklangan bolalarning psixik xususiyatlarini aniqlash va ularning jamiyatda ijtimoiy moslashishlari uchun shart sharoitlar yaratish masalasi doim mamlakatning diqqat e'tiborida bo'lgan. 1930-40 yilda kar bolalar bilish faoliyatini o'rganuvchi qator tadqiqotlar o'tkazildi, xususan K.I. Veresotskal kar bolalarni predmetlarni idrok etish, L.V.Zankov va D.R. Maynts ko'rgazmali materialni eslab qolish malakasini, M.M.Pudelman kar o'quvchilar tassovurlarini, Z.S. Beyn ko'ruv idrokini konstantligini, N.I.Shir kar bolalarni ranglarni idrok etish xususiyatlari, M.E. Vottsev kar o'quvchilarni yozma nutqi va o'qish malakalarini tadqiq etganlar. Bu yillarda olib borilgan tadqiqotlar qilish xarakterga ega edi, kar bolalar eshituvchi yoki aqli zaif bolalar bilan o'zaro qiyoslashib tekshirilar edi. Bunday yondashuv barcha kategoriyadagi bolalar bilan samarali ishlash imkonini beruvchi tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berar edi.[3]

Psixologlarning (T.A. Vlasova, R. M. Boskis, D. V. Neyman va boshqalarning) bergan ma'lumotlariga ko'ra, eshitishida nuqsonlari bor bolalarning rivojlanish darajasi shu nuqsonning bola hayotining qaysi davrida paydo bo'lganligiga va og'ir-engilligiga bog'liq. Surdopsixologiyada eshitishida nuqsonlari bor bolalar kar-soqov, zaif eshituvchi, keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar guruhiga bo'lib o'rganiladi.[4] Tug'ma hali tili chiqmagan go'daklik davrida ikkala qo'loqning mutlaqo eshitmasligi kar-soqovlikka olib keladi. Eshitish qobiliyatining qisman buzilishi natijasida nutqiy nuqsonga uchragan bolalar zaif



eshituvchi bolalar guruhiga kiritiladi. Nutqi rivojlanib, shakllanib olgandan so‘ng yaxshi eshitmaydigan bo‘lib qolgan bolalar keyinchalik zaif eshituvchi bo‘lib qolganlar guruhiga kiradi. Bu nuqson nutq tarkib topganidan so‘ng vujudga kelsa ham, quloqdagi nuqson tufayli eshitishda xos kamchiliklar bo‘laveradi.[5]

Metodologiya. Tadqiqotimiz maqsad va vazifalaridan kelib chiqib oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan ko‘zi ojiz talabalarni inklyuziv jarayondagi xolatlarini o‘rgandik . Bulardan 34 hafar ko‘zi ojiz talabalar bo‘lib, ulardan 17 tasi qizlar, 17 tasi o‘gil bolalar, 11tasi total, 23 tasi qisman ko‘ruvchilarni tashkil etadi. Ularni imtiyozli grand asosida o‘qishga qabul qilinganlar va 25 nafari TTJ da bepul yashaydilar 9 nafari o‘z uyidan qatnaydilar.

A.K. Osnitskiyning “Moslashuv indeksi” metodikasi_– bu talaba yoki yangi muhitga tushgan shaxsning yangi sharoitga qanchalik tez va samarali moslashayotganini aniqlash uchun mo‘ljallangan psixologik diagnostika vositasidir. Ushbu metodika Rossiyalik psixolog A.K. Osnitskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ayniqsa, universitetga yangi kirgan talabalar hayotida uchraydigan psixologik, ijtimoiy va akademik qiyinchiliklarni erta aniqlash va tahlil qilishga yordam beradi. Talabalar odatda yangi muhit, yangi talablar, notanish o‘qituvchilar va kursdoshlar bilan to‘qnash keladilar. Shu sababli, bu metodika ularning ichki holatini aniqlash, qanday o‘zgarishlarga uchrayotganini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. So‘rovnoma shaklida tuzilgan bu metodikada 10 ta fikr (bayonot) mavjud bo‘lib, har biriga “To‘liq qo‘shilaman”, “Qisman qo‘shilaman” yoki “Qo‘shilmayman” deb javob beriladi. Har bir javob mos ravishda 3, 2 yoki 1 ball bilan baholanadi. Bu fikrlar talabaning universitet hayotiga bo‘lgan qiziqishi, o‘qituvchilar va kursdoshlar bilan muloqoti, mustaqil ta’limga yondashuvi, stressga chidamliligi va o‘z fikrini ifodalash qobiliyatini o‘lchaydi. So‘rovnoma natijasida to‘plangan umumiy ball orqali talabaning yangi muhitga qanday moslashgani aniqlanadi. Agar talaba 30 dan 25 gacha ball to‘plasa, bu uning universitet muhitiga yaxshi moslashganini anglatadi. U o‘zini qulay his qiladi, o‘qishga qiziqadi va



ijtimoiy jihatdan faol bo‘ladi. 24 dan 15 gacha ball to‘plagan talaba hali to‘liq moslashmagan bo‘lsa-da, bu jarayon davom etmoqda, ya’ni vaqt o‘tishi bilan u yangi muhitga to‘liq kirishib ketishi mumkin. Ammo agar talaba 14 dan 10 gacha ball to‘plasa, bu moslashuvda jiddiy muammolar borligini bildiradi. U o‘zini noqulay his qiladi, darslarga e’tibor bermasligi, yolg‘izlanishi yoki stress holatida bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda psixologik yoki pedagogik yordam ko‘rsatilishi zarur bo‘ladi. “Moslashuv indeksi” metodikasi nafaqat talabaning ichki holatini baholash, balki unga mos yordam choralari ko‘rish, individual yondashuvni tanlash, guruhdagi umumiy psixologik muhitni aniqlash kabi maqsadlarda ham keng qo‘llaniladi. Bu metodika oddiy, tushunarli va tezkor bo‘lgani uchun psixologlar, o‘qituvchilar hamda ta’lim muassasalaridagi mutaxassislar uchun samarali vosita hisoblanadi. Shu sababli bu metodika talabalar bilan ishlashda, ayniqsa, ularning ilk o‘quv oylarida qo‘llanilsa, juda foydali natijalar beradi.

Natija. Dastlabki statistik tahlillardan ma’lum bo‘ldiki, obyekt sifatida tanlab olingan 34 nafar ko‘zi ojiz talabalarning natijalari bo‘yicha tahlil qilinganda quyidagicha o‘ziga xos jihatlar qayd etildi. A.K.Ostnitskiyning “Moslashuv indeksi” metodikasiga ko‘ra, 34 nafar ko‘zi ojiz talabalar yuqoridagi so‘rovnomalar bo‘yicha olgan natijalari qayd etilgan.

Natijalar quyidagi shkalalar orqali aniqlandi:

30-25 ball – Siz universitet hayotiga yaxshi moslashgansiz.

24-15 ball – Siz hali to‘liq moslashmagansiz, lekin jarayon davom etmoqda.

14-10 ball – Sizda moslashish bilan bog‘liq qiyinchiliklar bor, qo‘shimcha yordam zarur bo‘lishi mumkin.

Bunga ko‘ra:

- 10 nafar talaba (29,4%) – yuqori moslashuv darajasi
- 24 nafar talaba (70,6%) – o‘rta moslashuv darajasi deb aniqlandi.



Мухокама. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yuqori moslashuv darajasidagi talabalar (29,4%) — bu talabalar universitet muhitiga yetarli darajada moslashganini, ya'ni akademik topshiriqlarni bajara olish, mustaqil ta'lim bilan shug'ullanish, o'qituvchilarning talablari bilan muammosiz ishlay olish, shuningdek, ijtimoiy jihatdan kursdoshlar va universitet hayotiga faol integratsiyalasha olganligini ko'rsatmoqda. Bu ularning psixologik barqarorligi va muhit bilan uyg'unlashuv darajasi yuqoriligini bildiradi.

O'rta darajadagi moslashuvga ega talabalar (70,6%) — bu guruhdagi talabalar qisman moslashgan bo'lib, ular ayrim jihatlardan muammolarga duch kelmoqda. Masalan, dars jadvali va mustaqil ta'limga to'liq moslashmagan bo'lishi, shuningdek, kursdoshlar bilan muloqot qilishda yoki o'z fikrini erkin ifoda etishda qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Ularning psixologik holati nisbatan o'zgaruvchan bo'lib, moslashuv jarayoni davom etayotganini ko'rsatadi. Bu esa shaxslararo munosabatlar, o'ziga bo'lgan ishonch va tashqi talablar bilan kurashishda noaniqlik mavjudligini bildiradi.

Ko'rish nuqsoni shaxslararo munosabatga kirishishni qiyinlashtiradi va muloqot ehtiyojlari yetarlicha qondirilmaydi. Natijada bunday talabalarda mahzunlik, ichiga yutish, aksincha agressiv xulq atvor ko'rinishida ham namoyon boladi. Atrofdagilarni mimikasi yuz ifodasini ko'rmaslik, kimlar bor, nimalar bor, masxara yoki kamsitish ohangini his qilishi bularni hammasi moslashish jarayonini qiyinlashtiradi. Lekin talabalar har hil yo'nalishda turli kurslarda o'qishadi shuning uchun yuqori kurs talabalarida moslashuvchanlik quyi kurslardan balandligi aniqlandi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Inklyuziv talim muhitini shakllantirishda psixologik yondashuvning roli beqiyosdir, chunki u nafaqat o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga oladi, balki butun jamiyatning ijtimoiy-psixologik sog'lig'ini ta'minlaydi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, psixologik strategiyalar – masalan, emotsional intellektni rivojlantirish, guruh dinamikasini boshqarish va motivatsion usullar – inklyuziv talimning asosiy elementlari bo'lib,



ular orqali nogironligi bor va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish mumkin. Natijada, psixologik yondashuv nafaqat o'quv jarayonini samarali qiladi, balki jamiyatda tenglik va qabul qilish madaniyatini shakllantiradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, inklyuziv ta'lim muhitini psixologik jihatdan transformatsiya qilish — bu kelajak avlodning ijtimoiy tenglik va o'zaro hurmat ruhida kamol topishi uchun qo'yilgan muhim qadamdir. Ushbu yondashuvning tizimli tatbiq etilishi ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish bilan birga, har bir shaxsning o'z salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun to'siqlardan xoli muhitni yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Андреев С.Н. Профессиональная ориентация и обучение детей с ограниченными возможностями здоровья в организациях среднего профессионального образования Профессиональная ориентация инвалидов и лиц с ОВЗ в системе много уровневого образования: организационные и методические аспекты: //Материалы Всероссийской научно-практической конференции. – Москва, 18 ноября 2016 года. – С. 54-55
2. С.А.Рубинштейн. Основы общей психологии. М.: 1998 г. Т.В.Розанова. Некоторые особенности образной памяти глухонемых детей. «Специальная школа», 1958, № 1.
3. .Р.Шомахмудова «Инклюзив таълимнинг назарий ва амалий асослари». Тошкент, 2007.
4. Нейман Л.В. Слуховая функция у тугоухих и глухонемых детей. – М., 1999 й.
5. Н.Ф. Слезина. О временном использовании сокращенной системы фонем при первоначальном обучении
6. Педагогик атамалар луғати. – Т.: “Фан”, 2008. –Б.47.
7. Ғозиев Э. Ижтимоий мослашув. – Тошкент, 2000. Vekipediya.